

TURKIY TILSHUNOSLIK TARIXIDA LUG'AT TUZISH AN'ANALARI

Ne'matova Sevinch Alisher qizi

ToshDO'TAU O'zbek tili ta'limi fakulteti, 1-kurs

Annotatsiya: Ushbu maqolada o'zbek lug'atchiligi tarixi va o'sha davrlarda yaratilgan lug'atlar undagi ma'lumotlar hamda shu ma'lumotlar manbai to'g'risida so'z yuritiladi.

Annotation: In this article, the history of Uzbek lexicography and in those times the created dictionaries talk about the information in it and the source of this information.

Kalit so'zlar: O'zbek lug'atchiligi, "Devonu lug'otit turk", turkiy tilshunoslik, izohli lug'at.

Keywords: Uzbek dictionary, "Devonu Lugotit Turk", Turkish linguistics, explanatory dictionary.

O'zbek lug'ati tarixi Mahmud Koshg'ariyning «Devonu lug'otit turk» asaridan boshlangan deb aytish mumkin. Ushbu lug'at faqat so'zlar va ularning ma'nolarini tavsiflab qolmasdan, turkiy xalqlar tarixi, urf-odatlar, geografik joylashuvi kabi keng ma'lumotlar manbai hisoblanadi.

Shu bilan birga u dastlabki ikki tilli (turkiycha-arabcha) lug'atlardandir. "Devonu lug'ati-t-turk" asari turkiy tilshunoslikning bizga ma'lum bo'lgan ilk yirik, shuning bilan birga, tengi yo'q ulug' yodgorligidir. O'z zamonida asar arablarga, qolaversa, arab tili orqali Sharq-u G'arb xalqlariga qadimgi turklarning tili, madaniyati, urf-odatlar va tarixi to'g'risida to'liq ma'lumot beruvchi qomusiy kitob sifatida yaratilgan. Asar arabchada "Divanu lug'ati-t-turki" deb atalgan. Ushbu atamada: divan- "devon" bu o'rinda so'zlarning muayyan izchillikdagi to'plami; lug'at- "so'zlar" degani; uning izohlovchisi bo'lmish turki -"turk ma'nosida bo'lib, o'sha zamondagi turkiy tilni bildiradi. "Divanu lug'ati-t-turki"ning so'zma-so'z tarjimasida "Turk so'zlari devoni" bo'ladi. "Devonu lug'ati-t-turk" asari ikki qismdan iborat bo'lib, u muqaddima va lug'at qismlaridan tuzilgan. Muqaddimada asarning yaratilish sababi, o'sha davrda turklar ishlatgan yozuv, ot yasalishi, otlar va fe'llardagi orttirmalar, lug'atning tuzilish usullari, turkiy xalqlarning bayoni, joylashuv o'rni, turkiy tilning xususiyatlari, laxchalardagi farqlar to'g'risida so'z yuritilgan. Asarda har bir so'zning ma'nolari (polisemiya, omonim, antonim, arxaik so'zlar) chuqur tahlil qilinadi, ayrim so'zlarning etimologiyasi beriladi. Tovushlar tahlili ancha mukammal. Unli va undosh fonemalar, cho'ziq va qisqa unli farqlanadi, tildagi fonetik hodisa va qonuniyatlar ochib beriladi. Asarning muqaddima qismida shunday fikrni keltiradi: "Men bu kitobni maxsus alifbo tartibida hikmatli so'zlar, sajlal, maqollar, qo'shiqlar rajaz va nasr deb

atalgan adabiy parchalar bilan bezadim. Qattiq joylarini yumshatdim , qiyin va qorong‘u joylarini yoritdim. Bu ish ustida so‘zlarni o‘z joyiga qo‘yish, kerakli so‘zlarni osonlik bilan topish uchun bir necha yil mashaqqat tortdim. Nihoyat, kerakli so‘zlarni joyida ko‘zlaydigan, qiyinchiliksiz topa oladigan bir holga keltirdim”. Mahmud Zamaxshariy o‘zining «Asos ul-balog‘a», «Muqaddimat ul-adab» asarlari bilan ham amaliy, ham nazariy lug‘atning rivojiga ulkan hissa qo‘shdi. Alisher Navoiy ijodiga bo‘lgan katta qiziqish 15-asrdan keyingi davrda bir qancha lug‘atlarning yaratilishiga sabab bo‘ldi: «Abushqa» izohli lug‘ati, Toile Imoni Hiraviyning «Badoye ul-lug‘at», Muhammad Rizo Xoksoning «Muntaxab ul-lug‘ot», Mirzo Mahdiyxonning «Sangloh», shuningdek, Muhammad Yoqub Chingiyning «Kelurnoma», «Sulaymon Buxoriyning «Lug‘ati chig‘atoy va turki usmoniy» (Chig‘atoycha-turkcha lug‘at), Ishoqxon Ibratning «Lug‘ati sitta as-sina» (Olti tilli lug‘at) kabi lug‘atlarini ko‘rsatish mumkin. 19-asrning oxiri va 20-asrning 1-choragida turli xil sabab va ehtiyojlar, davr taqozosi bilan Turkistonda ikki tilli lug‘at rivoj topdi, o‘nlab ruscha-o‘zbekcha, o‘zbekcha-ruscha lug‘atlar, so‘zlashgichlar tuzilib nashr etildi. M.Nalivkin va M.Nalivkinalarning 1884 – 1912- yillar mobaynida bir necha marta nashr etilgan «Russko-sartovski i sartovsko-russkiy slovar’» («Ruscha-sartcha va sartcha-ruscha lug‘at»), Ashurali Zohiriy tomonidan 1927-yilda tuzilib, nashr ettirilgan 2 jildli «Ruscha-o‘zbekcha mukammal lug‘at» keyingi davrlarda O‘zbekistonda yaratilgan ikki tilli lug‘atlar uchun asos bo‘ldi. Hozirgi kungacha 10 ga yaqin xorijiy til bilan o‘zbekchani qiyoslovchi ko‘plab tarjima lug‘atlari, fan sohalariga oid 100 dan ziyod bir, ikki va uch tilli terminologik lug‘atlar yaratildi. O‘zbek xalqi tarixida birinchi marta «O‘zbek tilining izohli lug‘ati» tuzilib, nashr etildi (1981). 20 - asrda o‘zbek lug‘atchiligi rivojiga A.Zohiriy, A.Qodiriy, ye.D.Polivanov, A.K.Borovkov, V.V.Reshetov, S.Ibrohimov, Olim Usmon, Z.Ma’rufov, SH.T.Rahmatullayev, N.Mamatov, A.Hojiyev, T.Aliqulov va b. munosib hissa qo‘shdilar.

Xulosa qilib aytganda, hozirda respublika mustaqilligi tufayli o‘zbek lug‘atchiligi oldiga yangi davr talablariga javob beradigan entsiklopedik va lingvistik lug‘atlar yaratish vazifasi qo‘yilgan va bu vazifalar o‘z o‘rni bilan birin-ketin amalga oshirilmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ne‘matov H. So‘z, uning til va nutqdagi o‘rni // O‘zbek tili va adabiyoti. -1988, 6-son. 23-27 b.
2. Ne‘matov H., Begmatov E, Rasulov R. Leksik mikrosistema va uning tadqiq metodikasi // O‘zbek tili va adabiyoti. 1989. 6-son.
3. Ne‘matov H, Bozorov O., Til va nutq. –T.: O‘qituvchi, 1993.Б-3
4. Ne‘matov H, Rasulov R. O‘zbek tili sistem leksikologiyasi asoslari. – T.: O‘qituvchi, 1995. -127b.
5. Mahmud Qoshg‘ariy. Devonu lug‘at-t-turk. 3-15-b.